

## ERKAKLAR VA AYOLLARNING NUTQIY FAOLIYATI

**G'affarova Mahkamxon Qodirovna**

*Andijon davlat chet tillari instituti*

*E-mail: shohidas3@mail.ru*

*Tel: (97) 9827711*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada muloqot jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan gender til birliklarini asosiy xususiyatlarini aniqlash hamda ularning badiiy-estetik vazifalarini tahlil etilishi hamda ularning o'zaro farqi ko'rib chiqilgan. Hozirgi zamon tilshunosligining mazkur muammoga doir qarash va ma'lumotlari tahlil qilingan.*

**Kalit so'z va iboralar:** *nutq, faoliyat, xushmuomalalik, muloyimlik, itoatkorlik, erkaklar nutqi, ayollar nutqi, muloqot, muloqot xulqi, imo-ishora.*

Gender tushunchasi zamonaviy tilshunoslik paradigmasiga boshqa gumanitar fanlardan ko'ra ancha keyin kirib kelib, o'tgan asrning 60-yillarida atama sifatida shakllana boshladi. 1980-yillarga kelib, uning ilmiy tadqiqotlarda ishlatilishi keskin oshdi. Gender konseptini birinchi bo'lib amerikalik psixoanalitik Stoller qo'llagan. U gender konseptini ikkiga, ya'ni biologik (jins) va sotsiologik (gender) turlarga bo'lishni ma'qul ko'rgan.

Gender tilshunoslik yo'nalishi – ayol va erkak nutqidagi o'ziga xosliklarni, har bir jins vakili nutqidagi xususiyatlarni xushmuomalalik pozitsiyasi bilan o'rganishni taqozo etadi, erkak va ayol nutqidagi farqlar va o'xshashliklar bu yo'nalishning o'rganish obyekti hisoblanadi. Bu soha ko'plab tilshunoslarning izlanishlari markazida turadi. Bularga E.A.Zemskaya, A.P.Martinyuk, R.Lakof, Dj.Koats kabi olimlarning ishlarini misol qilishimiz mumkin.

Erkaklar nutqida faktlar, ma'lumotlarga asoslangan va muammolarni hal qilishga qaratilgan yondashuv ustun hisoblanadi. Shu bilan birga, suhbatda ustunlikni namoyish etishga qaratilgan muloqot xulqi erkaklar nutqi taktikasini belgilaydi. Ayollar nutqi esa xushmuomalalik, muloyimlik, itoatkorlik va faol tinglashga asoslangan bo'lib, muloqot taktikasi hamkorlikka, kelishuvga erishish va munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan. Umuman olganda, ayollarning nutqiy faoliyati ko'proq "insoniy"ligi bilan tavsiflanadi.

1. Masofa saqlash.

Erkaklar bir-biriga qarama-qarshi turib, yuzma-yuz gaplashishni afzal ko'radilar va erkaklarga qaraganda ayollarga yaqinroq turishadi. Ayollar uchun yonma-yon turib gaplashish va yaqin bo'lish qulay.

Aralash (erkaklar va ayollar) muloqotda erkaklar, ko'pincha, ayollarga kamroq joy ajratadilar, bu ularga nisbatan pastroq mavqe belgilanishini anglatadi. Ayollar bu hukmronlik signalini umuman sezmasliklari yoki bunga e'tibor bermasliklari mumkin.

## 2. Teginish.

Umuman olganda, erkaklar teginishdan qochishadi. Ammo agar ular undan foydalanishsa, ko'pincha, hukmronlik namoyishi sifatida, jumladan, suhbatdoshning elkasiga urib qo'yish kuzatiladi. O'zbek muloqot xulqida esa qarama-qarshi jins vakiliga nisbatan bunday odatga yo'l qo'yilmaydi. Ayollar ishonch hosil qilish yoki muloqot o'rnatish uchun teginishdan foydalanadilar, masalan, suhbatdoshni tinchlantirish yoki qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'lini ushlashi mumkin. Lekin, o'zbek ayollar muloqot xulqida qarama-qarshi jins vakillariga teginishdan qochiladi.

## 3. Ko'z bilan muloqot qilish.

Erkaklar gapirayotganda va tinglash paytida hukmronlikni ochiq ko'rsatish maqsadida suhbatdoshining ko'zlariga qarashadi. Ammo, umuman olganda, to'g'ridan-to'g'ri ko'z bilan muloqot qilmaslikni afzal ko'rishadi.

Ayollar ko'z bilan muloqot qilishni so'zlovchi bilan bog'lanishning bir usuli deb hisoblaydilar, ya'ni suhbatdoshga e'tibor qaratayotganliklari va tinglayotganliklarini ko'rsatadi. Agar erkak suhbat davomida boshqa tomonga qarasa, ayol buni muloqotni tark etish uchun signal sifatida qabul qilishi mumkin, aslida erkak do'stona munosabatda bo'lib, yaqinlikdan qochmagan bo'lishi mumkin. Signalni noto'g'ri baholash gender to'siqlarga olib kelishi mumkin.

## 4. Noverbal imo-ishoralar.

Erkaklarning yuz ifodalari ayollarnikiga qaraganda kamroq jonli, ular kamroq tabassum qiladilar va erkaklar noverbal signallarni idrok etish yoki ularni yuborishda ayollarga qaraganda kamroq muvaffaqiyatga erishadilar. Erkaklarning imo-ishoralari ham ko'proq chegaralangan.

Ayollar suhbatda erkaklarga qaraganda ko'proq tabassum qiladilar. Ularning yuz va imo-ishora repertuari ham erkaklarnikiga qaraganda ancha kengroq hamda ular noverbal signallarga sezgirdirlar.

## 5. Ma'lumot almashish mazmuni.

Erkaklar qisqaroq xabar-jumlalarni afzal ko'radilar, kamdan-kam hollarda o'zlari haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etadilar, lekin ular hozirgi tegishli voqealari va suhbat mavzusini yaxshiroq bilishlarini isbotlashga intiladilar. Odatda, erkaklar o'z nuqtai nazarini taqdim etishga e'tibor berishadi, ehtimol, ayollarni xafa qilishi mumkin bo'lgan ilgari aytilgan

narsalarni e'tiborsiz qoldiradilar. Xabar-ma'lumot, aslida, assimetrikdir, chunki u so'zlovchi uchun yuqoriroq darajadagi ekspert maqomini olishga xizmat qiladi. Aralash suhbatlarda erkaklar uzoqroq va ko'proq gapirishga moyildirlar.

Ayollar suhbat umumiy strategiyasining bir qismi sifatida ko'proq xushmuomalalik, yumshatish, savol berish shakllaridan foydalanadilar. Ayollarning xabarlari ko'pincha savol intonasiyasi bilan uzatiladi yoki jumlaning boshida yoki oxirida izoh bilan yumshatiladi: "siz nima deb o'ylaysiz?", "shunday emasmi?" va hokazo. Ayollar suhbatda shaxsiy ma'lumotlarini osongina almashadilar va his-tuyg'ulari va munosabatlari haqida ko'p gapiradilar.

#### 6. Muloqot uzilishlari.

Erkaklar suhbatlari – bu hukmronlik uchun raqobat, bir masaladan ikkinchisiga sakrash. Erkaklar qat'iy, o'zgarmas ifodalarga, monologga moyil va har kimni muloqotga tortishdan tashvishlanmaydi. O'z doitnantligini ko'rsatish uchun so'zlovchining so'zini to'xtatib qo'yishi, o'z so'zini yakunlashiga hooaqit berishi, suhbat mavzusini o'zgartirishi mumkin. Ierarxiya o'rnatilgandan bir oz vaqt o'tgach, faqat bir yoki bir nechtasi butun guruhga murojaat qilib gapiradilar, qolganlari jim eshitadilar.

Ayollar o'rtasidagi suhbat – navbatma-navbat gapirish, oldingi ishtirokchining suhbatga qo'shgan hissasini e'tirof etish va har bir suhbatdoshning muloqotda ishtirok etishiga qiziqish bildirish bilan tavsiflanadi. Ayollar tinglovchining rolini qadrlashadi. Shu bilan birga, ayollarning katta guruhida bir vaqtning o'zida hammaga murojaat qilish emas, balki shaxsiylashtirilgan, juftliklar o'rtasidagi muloqot afzal ko'riladi.

Demak, katta guruhlarda shaxsiy muloqot ayollarga ham to'sqinlik qiladi, chunki bu ushbu muloqotda ishtirok etmayotgan qolganlar ustidan nazoratni saqlab turishga imkon bermaydi. Bu o'z navbatida har bir so'zlovchini tilning go'zal va boy imkoniyatlarini ko'rsatib berishga undaydi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Формановская Н.И. Коммуникативно-прагматические аспекты единиц общения: Учеб.пособ. – М.1998. – 291 с.
2. Формановская Н.И. Речевое общение: коммуникативно-прагматический подход. Москва: Русский язык, 2002. – 213 с.
3. Хованова Е.В. Барьеры межпоколенных коммуникаций в региональном аспекте: <https://cyberleninka.ru>